



MA'NAVIY BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Shonazarov J.U.

*Xalqaro innovatsion universitet "Pedagogika va jismoniy madaniyat"
kafedrası katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: boshqaruv, ma'naviy boshqaruv, ta'lim-tarbiya, ta'lim tizimi, pedagogik jarayon, barkamol shaxs, innovatsiya, globallashuv, kreativ fikrlash, ta'lim texnologiyalari, ilg'or pedagogik tajriba.

Ключевые слова: менеджмент, духовное управление, образование, система образования, педагогический процесс, всесторонняя личность, инновации, глобализация, креативное мышление, образовательные технологии, передовой педагогический опыт.

Key words: management, spiritual management, education, education system, pedagogical process, well-rounded person, innovation, globalization, creative thinking, educational technologies, advanced pedagogical experience.

Ma'lumki, boshqaruv taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga hos bo'lgan ichki xususiyatdir. Mehnatning har qanday shakli-ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat – idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir. Bugungi kunda jamiyatda to'g'ri boshqaruvning muhim sharti ham boshqaruvchining ya'ni rahbarning faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunga muvofiq boshqaruvning 3 ta asosiy yo'nalishi bor:

1. Iqtisodiy boshqaruv
2. Ijtimoiy-siyosiy boshqaruv
3. Ma'naviy boshqaruv.

Biz yashayotgan jamiyat taraqqiy etmog'i uchun yuksak intellektual potensialga ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma'rifat berishni, aholiga madaniy maishiy xizmat ko'rsatishni, ilmiy asosda boshqarish zaruriyati ana shundan kelib chiqadi.

Hozirgi davrda ma'naviy boshqaruv jamiyatimizda g'oyat katta ahamiyatga ega. Bu shakldagi boshqarish umumiy ta'lim maktablari, maktabgacha, maktabdan



tashqari bolalar muassasalari, xalq ta'lim organlari, o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari, professional ta'lim, va akademik litseylar hamda oliy o'quv yurtlari, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazlarini boshqarishni, fan, adabiyot, san'at, madaniyat, sog'liqni saqlash kabi sohalarini boshqarish tizimini o'z ichiga oladi. Aynan ushbu boshqaruv tizimida mavjud muammolarni bartaraf etish jamiyat oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi muammolarni hal etish ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularni hal etish hozirgi kunda milliy pedagogikamiz erishgan yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish natijasi va pedagogik mahorati, ijodiy izlanishi asosida amalga oshishi mumkin. Shu bois, ta'lim-tarbiya tizimida ham bu kabi muammolar o'ziga xos dolzarb muammo sifatida tadqiqotchilar diqqat markazida turibdi [1].

Ta'lim tizimi innovatsiyalari hayot ehtiyojlarini qay darajada to'la qondirsa, jamiyat hayoti boshqa sohalarining rivojlanishiga uning ta'siri shu darajada kuchli bo'ladi. Ayni shu sababli fan va ta'lim tizimi o'rtasida vujudga kelgan tafovutni bartaraf etish oliy ta'lim tizimining kun tartibida turgan muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifa yosh avlod ijodiy tafakurini rivojlantirishni nazarda tutishini anglatadi, zero, hayot tinimsiz ilgari suruvchi nostandart vazifalarni faqat shu yo'l bilan yechish mumkin. Shunday ekan, bilimni muttasil yangilashga bo'lgan intilishni tarbiyalash ta'lim innovatsiyalarining muhim elementi sanaladi. Bu esa, o'z navbatida, globallashuv jarayonida hayotda yangicha dunyoqarashga ega, kreativ fikrlaydigan va ijodiy izlanuvchan yosh avlodni tarbiyalashni nazarda tutadi [2].

Ta'lim innovatsiyalari – bu uni tashkil etuvchi ta'lim institutlarigina emas, balki tegishli davlat idoralari tomonidan olib boriluvchi ta'limga oid davlat siyosati, pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonining moddiy ta'minoti, «jamiyat – shaxs – davlat» munosabatlarida manfaatlarining muayyan nisbati hamdir. Shu sababli bir mamlakatda vujudga kelgan va rivojlangan ta'lim tizimini boshqa mamlakatga, o'zga tarixiy sharoitlarga ko'r-ko'rona ko'chirish mumkin emas. Shuning uchun ham milliy ta'lim tizimida vujudga kelgan ijobiy an'analar, to'plangan tajriba, shakllangan ilmiy maktablarni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning kelajagi, uning taraqqiyoti va ravnaqi ko'p tomonlama undagi kadrlarning bilimdonligi, kasb tayyorgarligi va ma'naviy etukligiga bog'liq ekan, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida Kadrlar tayyorlash sohasidagi, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar va ta'lim-tarbiyaga innovatsiyalarni jalb etish ustuvor vazifa sifatida qaratilgan. Hukumatimiz bu borada mamlakat hayotida ta'lim-tarbiyaning o'rni va ahamiyatini yuqori baholab, tahlil etgan holda bu tizimga katta moliyaviy sarmoyalar kiritilishi ijobiy natijalar bermoqda. Ushbu amaliy ishlar va maxsus dasturlarga muvofiq barkamol shaxsni tarbiyalash va kamol toptirish Respublika ta'lim hodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifani yuklaydi va bu ta'lim-tarbiya tizimida o'quvchi-talabalarni

o'qitishga yangicha yondashishni taqazo etadi. Shu boisdan ma'naviy boshqaruv tizimida pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyasini yangisiga almashtirish, zamonaviy maktabga davr talablari asosida yondashish, o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy o'qitish texnologiyalardan samarali foydalanish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Biz mana shu sohaga e'tibor berar ekanmiz undagi ba'zi moddiy va ma'naviy kamchiliklarni bartaraf etishda ularning individual va yosh xususiyatlari, ijodkorlik qobiliyatlari hamda kreativ fikrlashlarini hisobga olishimiz maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan xalqimiz o'z bolalarini o'sib-unib kamolga yetishini, xalq koriga yaraydigan shaxs bo'lib yetishishini istaydi va bu yo'lda tinmay harakat qiladi. Vatanimizda inson manfaatlarini eng oliy qadriyat, ya'ni avvalo inson omiliga bo'lgan e'tibor birinchi o'rinda bo'lib kelgan. Bugungi kunda texnika-texnologiyalar o'qituvchi kasbi faoliyatini yangilik sifatida uni o'rganishni zamon talabi deb quyay ekan, bu borada nazariy izlanishlar bilan birga hozirgi ta'lim voqeligiga oid keng tadqiqotlar maydonida harakatlanish ta'lim-tarbiya sohasidagi innovatsiyalarni to'g'ri anglash va ulardan o'z faoliyatida samarali foydalanish ekanligini tasdiqladi va kelgusi ilmiy izlanish yo'nalishini aniqlash imkoniyatini berdi [3].

Ta'limdagi innovatsiya - innovatsiyaning mehnat taqsimoti tarixiy jarayoni mobaynida ajralib chiqqan muayyan tipi hisoblanadi, degan fikr tegishli dalillar bilan asoslandi. Ta'limdagi innovatsiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda asosan innovatsion faoliyat sifatida tashkil etilgan subekt-subekt, subekt-obekt munosabatlariga ijodkorlik asosida yondashiladi. Mazkur faoliyatning predmeti sifatida ta'limning gumanistik paradigmasiga o'tishning asosi hisoblanadigan ta'limga oid subekt-subekt munosabatlari tizimi amal qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik faoliyatda ta'lim innovatsiyalarini qo'llash afzalligi – bu ta'limning rivojlanish jarayonini boshqarishda optimallashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda uning tuzilishi va mazmunini izchil, tizimli o'zgartirish imkoniyatini beruvchi alohida shaklidir, degan qoidaga asosan amalga oshiriladi [4]. Pedagogik tizimga innovatsiyalar kiritilar, qullanilar va yaratilar ekan, yoshlarni o'quv-bilish jarayonida motivatsion muhit o'zgaradi, ular orasidan yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan qiziqish va intilishlar yanada paydo bo'ladi. Natijada yaxlit pedagogik jarayonda o'qituvchi-o'quvchi hamkorligida tadqiqot faoliyatlari rivojlanadi, yaratuvchanlik muhiti shakllanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning ta'lim tizimiga kiritilishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlar asosida ilmiy-ijodiy yaratuvchanlik jamoalari yuzaga keladi va jamiyatimiz hayotida instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqarishni



yanada takomillashtiradi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

O'quv jarayonida innovatsion faoliyatning takomillashishi talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi, keyinchalik ular innovatsiyalarni yaratish bilan bog'liq bo'lgan amaliy hayotning turli sohalarida qo'llanilishi mumkin. Bunday o'zgarish amalga oshirilishi natijasida ma'naviy boshqaruv yo'nalishida boshqaruv madaniyati ham o'zgaradi, chunki rivojlanishning innovatsion usuli unga alohida talablar qo'yadi. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har bir pedagog globallashuv sharoitida pedagogik mahoratga erishish, ilg'or pedagogik tajribalarni egallashi va mazkur jarayonda, ya'ni pedagogik jarayonda o'zini o'zi o'zgartirishi, izlanishi, lozim bo'lsa o'z faoliyatini ongli va tizimli rivojlantirishi uchun kreativ fikrlashi va yondashishi maqsadga muvofiq. Shu tariqa ta'limdagi innovatsiyalar ijtimoiy rivojlanish resursi sanalgan hozirgi zamon ta'limining rivojlanishini ta'minlovchi noyob ijtimoiy mexanizmga aylanadi va jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimining yuksalishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Ishmuxeimov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. -T.: "Nihol", 2016.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008 yil. 130 bet.
3. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). -T.: «Fan» nashriyoti, 2006 yil.
4. Xudoyqulov X.J. Zamonaviy pedagogik texnologiya ta'lim samaradorligining asosidir. –Toshkent.: "Navro'z", 2013 yil. 92-bet.

РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada boshqaruv tizimida mavjud muammolar, ularni bartaraf etishda jamiyat oldidagi vazifalar, innovatsion yondashish, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar mexanizmi, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan hamda hal etilishi lozim bo'lgan pedagogik vazifalar bayon etilgan. Shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar va innovatsion texnologiyalardan pedagogik jarayonda foydalanish zarurati, o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash, ta'lim innovatsiyalarining pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri va ijobiy mexanizmlariga oid xos xususiyatlari keltirilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье описаны проблемы, существующие в системе управления, задачи, стоящие перед обществом по их устранению, инновационный подход, механизм реформ в сфере образования, педагогические задачи, которые возникают в педагогическом процессе и должны быть решены. Также перечислены необходимость использования в педагогическом процессе передового педагогического опыта и инновационных технологий, обучения студентов творческому мышлению, применения инноваций в образовательном процессе, влияние образовательных инноваций на эффективность и положительные механизмы учебной деятельности.

SUMMARY

This article describes the problems existing in the management system, the tasks before the society in their elimination, innovative approach, the mechanism of reforms in the field of education, the pedagogical tasks that arise in the pedagogical process and must be solved. Also, the need to use advanced pedagogical experiences and innovative technologies in the pedagogical process, teaching students to think creatively, applying innovations to the educational process, the impact of educational innovations on the effectiveness and positive mechanisms of educational activities features are listed.